
NETHERLANDS
INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE
DEVELOPMENT AND
INNOVATIONS IN
SCIENCE
OPEN

WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES




# DUTCH International Scientific Online Conference:

# «DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE»

**A collection of articles by Central Asian scholars**
**Issue 3, Part 1**

doi Google Scholar OPEN ACCESS OpenAIRE OJS zenodo

**Indexed databases:**

**March 5, 2022**
**woconf.com**

**DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE:** a collection scientific works of the International scientific conference (5th March, 2022) – Amsterdam, Netherlands: «AID», 2022. Part 1.

**Languages of publication:** Dutch, Russian, English, Maldaski, Kazaкsha, o'zbek, limba romвnă, Kyrgyz tili, Հայերեն

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference **«DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE»**. Which took place in Washington on MARCH 5, 2022.

Conference proceedings are recomanded for scientits and teachers in higher education esteblishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© «AID», 2022
© Authors, 2022

| | | |
|---|---|---|
| 16. | **Ахунов Жасурбек**<br>ТАЪЛИМ БИЛАН ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШ ЎРТАСИДА ЎЗАРО БОҒЛИҚЛИК ХУСУСИДА | 50 |
| 17. | **Usmonov Shukurillo Yulbarsovich,Sultonov Ruzimatjon Anvarjom o'g'li,Kuchkarova Dilnoza Toptievna**<br>ANALYSIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR ELECTRIC DRIVES USING A MATHEMATICAL MODEL | 55 |
| 18. | **Askarova Nargiza Abdivalievna,Ibragimova Nozima**<br>FEATURES OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE IN EXTREME SITUATIONS | 60 |
| 19. | **Sayfullaeva Zukhra Izzatillaevna**<br>MAIN AREAS OF DIFFICULTIES IN PEDAGOGICAL INTERACTION | 65 |
| 20. | **Марупова Манзура Аминовна,Касимова Хафиза Холматовна,Шералиев Махмуджон Собиржон ўғли**<br>ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ПРИМЕНЕНИЕ ИНСЕКТИЦИДОВ, ОТНОСЯЩЕЙСЯ К КЛАССУ ОВЕРМЕКТИНОВ | 70 |
| 21. | **Tojiyev Ergashali Axadovich,Abdulxaqov Nurbek Ulug'bek o'g'li**<br>CHIQINDI MAXSULOTLARDAN SULFAT KISLOTA ISHTIROKIDA FURFUROL MODDASINI OLISH | 76 |
| 22. | **Komilov Azizjon Xoshimovich,Mansurov Shamshod**<br>PRACTICAL AND THEORETICAL SIGNIFICANCE OF STUDYING THE RULES OF INTERNATIONAL COMPETITIONS IN THE SPORT OF YOUTH WRESTLING | 79 |
| 23. | **Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich,Negmatov Fazliddin Faxriddinovich**<br>BELBOG'LI KURASH SPORT TURIGA O'QUVCHILARNI SARALASH TIZIMI VA MAZMUNI | 84 |

# BELBOG'LI KURASH SPORT TURIGA O'QUVCHILARNI SARALASH TIZIMI VA MAZMUNI

**Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich[1]**
**Negmatov Fazliddin Faxriddinovich[2]**
[1] Jizzax davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat fakulteti o'qituvchisi,
[2] Jismoniy madaniyat fakulteti 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.6345046

**Аннотация:** Ushbu maqolada belbog'li kurash sport turiga bolalarni saralashda ularni qobilyatlarini va iqtidorlarini aniqlash tizimi va mazmunini, hamda saralashning birinchi bosqichini maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshirish zarurligi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Belbo'g'li kurash, Jismoniy tarbiya, sportchilarni saralash, maktabgacha ta'lim, mo'ljal olish, boshlangich tayyorgarlik.

Mamalakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" gi farmonini imzolanishi jismoniy tarbiya bo'yicha faoliyat olib barayotgan barcha murabbiy o'qituvchilar zimmasiga ulkan vazifa va masuliyat yuklandi. [1]. Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan sportning barcha turlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu, istedodli sportchilarni sport turlariga saralash va yo'naltirish, ushbu masala yuzasidan yaqin o'tmishda va hozirgi kunda ham ko'plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Belbogli kurash sport turiga istodli sportchilarni saralash masalasi nafaqat kurash balki barcha sport turlari oldida turgan, dolzarb muoomolardan biri sifatida o'rganilmoqda. Xususan ushbu mavzu yuzasidan bir qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. [2]

Mavzuni yoritish uchun sport turlariga bolalarni saralash tizimi va mazmuni bo'yicha yetakchi mutaxassislar jumladan, xorijda va MDH mamlakatlarida sport turlariga bolalarni saralash tizimi va mazmuni mavzusi bilan A.N. Leontev (1960), S.L. Rubinshteyn (1960), V.A. Krutetskiy (1968), K.K. Platonov (1970) L.V. Volkov, L.P. Matveyev, V.P. Filin (1983), K.K. Platonov (1987), N.A. Bernshteyn (1990), V.I. Lyax (1999), P.Hirtz (1995), W. Ljach (1997), A.A. Novikov, Yu.V. Verxoshanskiy, V.M. Dyachkov, M.A. Godik, V.M. Zatsorskiy, M.Ya. Nabatnikova, L.P. Matveev, V.N. Platonov, V.P. Filin, A.P. Kuptsov, G.S. Tumanyan,va boshqa ko'pgina olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. [5]

Respublikamizda jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, sport kurashi nazariyasi, sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari, sport kurashi mashg'ulotlarinig uzviyligini ta'minlashning nazariy va metodologik asoslari bo'yicha Salomov R.S., A.Q. Ataev, I.I. Alixanov F.A, 8.Yusupov K.T., Nurshin va boshqa tadqiqotchi olimlar nazariy va amaliy jihatlarini yoritgan. [4]

Bundan tashqari, jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish, jismoniy tarbiya bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlar, turli hududlarda bolalar sportini rivojlantirish, istedodli va iqtidorli sportchilarni saralash va sport turlariga yo'naltirish, sport kurashi bo'yicha o'quv trenirovka mashg'ulotlarni tashkil etish, sport kurashi mashg'ulotlarini rejalashtirish, sport turlariga bolalarni saralash mazmunini tizmlashtirish mavzusi yuzasidan T. Usmonxo'jaev,

R. Salamov, F. Kerimov, Sh. Xonkeldiev, A. Abdullaev, R. Xalmuxamedov, V. Shin G. Abdurasulova, S. Tajibayev, Sh. Mirzakulov. N. Azizov, Nurshin, va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borib o'zlarini darslik, o'quv qo'llanma, maqola va tezislarida saralash tizimini asoslovchi yangidan-yangi ma'lumot va tavsiyalar ishlab chiqishgan. [3]

Belbog'li kurash sport turiga saralashning dastlabki bosqichi albatta maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi, bunda biz quyidagi hal qilinishi lozim bo'lgan vaziyatlarga to'qnash kelishimiz mumkin, bu holatlar tadqiqot jarayoni davomida oydinlashtirilishi talab qilinadi.

- o'quvchilarning yoshi va jinsiga mos, kurash sport turiga oid, qobiliyatlarni mavjudligi ;
- o'quvchilarning individual imkoniyatlari, kurash sport turiga oid umumiy jismoniy tayyorgarligi yaxshi rivojlanganligi;
- kurash turiga, o'quvchini xarakter va temperamantini mos kelishi;
- o'quvchilarning antropometrik ko'rsatkichlari, gavda o'lchamlarini kurash sport turiga mos kelishi;
- kurash sport turiga oid qobiliyatlarning tarkibi, va qay darajada rivojlanganligi;

O'quvchilarning yoshi va jinsiga mos, kurash sport turiga oid qobiliyatlarni mavjudligi, bu jarayonda sportchilarning fiziologik, psixologik imkoniyatlarini inobatga olib, shug'ullanuvchilar organizimiga beriladigan yuklamalarni ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganib chiqish, va aynan kurashchiga xos fazilatlarni, qobiliyatlarni, mavjudligi aniqlanadi, shu bilan birgalikda, o'quvchilarning individual imkoniyatlarini murabbiy sportchilarni sport turiga saralash bosqichida umumiy hamda maxsus tayyorgarligi qay darajada ekanligini aniqlab, o'quvchining kuchli rivojlangan jismoniy sifatlarini sport turi texnika-taktikasining mos variantlari sportchilarni saralashda asosiy vosita bo'la oladi. Murabbiyning pedagogik mahorati doimo izlanuvchanligi bu faqat o'zi bilgan metodlar asosida emas, balki yuqori natijarga erishayotgan hamkasblari faoliyatidan o'ziga andoza olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarning antropometrik ko'rsatkichlari gavdaning ma'lum har bir o'lchamlarini, qolaversa bo'yi, og'irligiga qarab kurash texnik-taktik sxemalarini ishlab chiqish va o`z navbatida yuqori natijalarga erishgan sportchilarning kun tartibini, mashg'ulotlarda hamda musobaqa jarayonidagi ruhiy, irodaviy, axloqiy jihatlarini taxlil qilish, bundan tashqari saralangan kurashchilar bilan yuqori natijaga erishgan sportchilarni qobiliyatlarini solishtirish, o'xshashlik va kamchiliklarini, o'rganib taxlil qilish, bu esa o'z navbatida saralanayotgan kurashchini qobiliyati kurashning texnik-taktik xarakatlarni egallashdagi mahoratini, murabbiy oldindan ko'ra bilishi mumkin bo'ladi.

WOC WORLD ONLINE CONFERENCES

Sportga oid mo'ljal olish va harakatlarga oid qobiliyatli bolalarni saralash bo'yicha bir nechta o'zaro farqlanuvchi holatlar ajratib ko'rsatiladi, Belbog'li kurash sportida o'quvchilarni saralash tizimini bosqichlarga bo'lib chiqilganda, quyidagicha tartibda, ya'ni:

- boshlang'ich tayyorgarlik guruhiga qabul qilinuvchi sportchilarni, sportga nisbatan mo'ljal olish;
- boshlang'ich sportga ixtisoslashgan sportchilarni, sportga nisbatan mo'ljal olish;
- boshlang'ich sportga ixtisoslashtirish yo'nalishidagi o'quv-mashg'ulotlar guruhlarida istiqbolli sportchilarni saralab olish;

- chuqurlashtirilgan ixtisoslashtirilish o'quv-mashg'ulotlar guruhlarida istiqbolli yosh sportchilarni saralab olish;

- sportga oid takomillashtirish guruhlarida istiqbolli sportchilarni saralab olish. [5].

Murabbiy, sportchining harakat a'zolari faoliyatini shakllantirishga jismoniy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan mashq jarayonini amalga oshiradi. Shunday ekan ushbu hislatlar o'z tengdoshlariga nisbatan yaxshi rivojlangan o'quvchilarni saralab olishi tezroq natijaga erishishini ta'minlaydi. Murabbiy mashg'ulot jarayoniga o'quvchilarni saralab olar ekan, sport dargohida faqat istiqbolli bolalarni vijdonan tanlab olish (bu pedagogik, ijtimoiy, psixologik, metodik–biologik usullardan tarkib topgan xarakterlar majmuining tashkiliy–metodik tadbirlari tizimi bo'lib, sport mutaxassisligiga saralanayotgan bolalarning iste'dodi va qobiliyati mazkur usullar yordamida aniqlanadi), ularning qaysi sport turiga layoqatli ekanligini aniqlash (hozirgi paytda sportning 16 turi bo'yicha bolalarni saralashning ham miqdoriy, ham sifatiy tuzilmasi aniqlash) farz va qarzdir. Lekin har qanday vaziyatda ham trener bolalarni sportga saralar ekan, ulardagi ijobiy omillar yig'indisiga e'tibor berishi va albatta bolaning astoydil ishtiyoqli, mehnatga layoqati va o'ziga xos xislatlarini hisobga olishi shart.

WOC
WORLD
ONLINE
CONFERENCES

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tog'risida" gi farmonini Toshkent shahri, 2018-yil 5-mart.

2. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati, Toshkent "O'z DJTI" nashriyoti-matbaa bo'limi 2001-yil.

3. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, Toshkent "Zar qalam" nashriyoti 2004-yil.

4. Salomov R.S. Sport mashg'ulotining nazariy asoslari "O'z DJTI" nashriyoti-matbaa bo'limi Toshkent 2005-yil

5. Xalmuxamedov R.D. Shin V.N. Abdurasulova G.B.Tajibayev S.S. Yosh yakkakurashchilar ko'p yillik tayyorgarlik jarayonining turli bosqichlarida saralashning me'yorlari